**Toshkentkimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali xarid komissiyasining yig'ilishi**

**BAYONI№2**

Shahrisabz shahri "24"avgust2021yil

**Komissiyaraisi:**
DirektorSh.A.Mutalov
**Komissiya a'zolari:**
Bosh muhandisA.Malikov
Bosh hisobchiD.X.Amanova
Reja-moliya bo'limi boshlig'iL.M.Nurmatov
Texnik foydalanish va
xo'jalik bo'limi boshlig'I A.C.Juraqulov

**Kvorum 100%**

**Kun tartibi:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali o'quv binosini joriy ta'mirlash yuzasidan pudratchi tashkilotlardan kelgan takliflarni o'rganish va g'olib pudratchini tanlash to'grisida.**

Kun tartibidagi masala yuzasidan komissiya raisi Sh.A.Mutalov so'zga chiqib TKTI Shahrisabz filialida o'quv binosini joriy ta'mirlash yuzasidanbirja portaliga 2021 yil 3-mayda e'lon qilingan**№:7140667**lot muddati tugaganligini va ushbu lotga muvofiq kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish kerakligini ma'lum qildi.
E'lon qilingan muddat davomida**o'quv binosini joriy ta'mirlash yuzasidan** kamchiliklar aktiga asosan ajratilgan **162 753 900 so'm** qiymatida berilgan loyihani bajarish uchun 3 ta taklif kelib tushgan va ro'yxatga olingan. **Xizmat takliflari paketi ochilishida shaffoflikni ta'minlash maqsadida barcha ishtirokchilarning vakolatli vakillari taklif etildi** va ochilish jarayoniga **3 ishtirokchining vakolatli vakillari ishtirok etdi**. Paketlarvakolatli vakillarguvohligida ochildi hamda keltirilgan narxlar o'qib eshittirildi.
Tanlov bo'yicha ishtirokchilar tomonidan taklif qilingan narxlar quyidagicha:

| № | **Ishtirokchilarnomi** | **Taklifnarxi** (mingso'mda) |
|---|---|---|
| 1 | "BOTIRPOLVON" xususiykorxonasi | **162 634 684** |
| 2 | "OZOD DIYOR BINOKORI"xususiy korxonasi | **162 642 302** |
| 3 | "INMOTION BUILDING PROJECT" MCHJ | **160 349 649** |

Komissiya a'zosi D.X.Amanova so'zga chiqib yuqorida keltirilgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan har tomonlama-chuqur o'rganib chiqilishi kerakligini hamda ishtirokchilarning taklif bergan narxlaridan tashqari **O'zbekiston Respublikasining Davlat xaridlari to'g'risidagi 2021 yil 22-aprelda qabul qilingan O'RQ-684 son qonuniga qat'iy amal qilib hamda ushbu qonunning 5-36--moddalarigaa**sosan tejamkorlik, malakaga oid ma'lumotlar, ishtirokchilarga quyilgan talab mezonlari, ya'ni zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi,soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi to'grisida taqdim etilgan ma'lumotlar hisobga olinishini ta'kidladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra va xarid komissiyasi tomonidan o'rganilgan natijalarni hisobga olib **o'quv binosini joriy ta'mirlash** ishlarini bajarish uchun "INMOTION BUILDING PROJECT" MCHJning nomzodi ko'rib chiqildi. Taklif komissiya a'zolari tomonidan _100_% ovoz bilan ma'qullandi.

Barcha o'rganilgan ma'lumotlar va takliflarni hisobga olib xarid komissiyasi

**QAROR QILADI :**

1. "INMOTION BUILDING PROJECT" MCHJtanlov g'olibi deb topilsin.
2. Tanlov g'olibi bilanbelgilangan tartibda shartnoma imzolansin.
3. Ushbu kapital ta'mirlash ishlari uchun to'lovlarni belgilangan tartibda o'z muddatida to'lab borish bosh hisobchi v.b D.Amanova zimmasiga yuklatilsin.
4. Ushbu kapital ta'mirlash ishlarini bajarilishini sifat va miqdor jihatdan nazorat qilish, bajarilgan ishlarni qabul qilish bosh muhandis A.Malikov zimmasiga yuklansin.
5. Ushbu bayonnoma qarori ijrosini nazorat qilish xarid komissiyasi raisi Sh.A.Mutalovga yuklatilsin.

**Komissiyaraisi:**

DirektorSh.A.Mutalov

**Komissiya a'zolari:**

Bosh muhandis A.Malikov

Bosh hisobchiD.X.Amanova

Reja-moliya bo'limi boshlig'iL.M.Nurmatov

Texnik foydalanish va
xo'jalik bo'limi boshlig'I A.C.Juraqulov